



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 556 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</i>	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
<i>Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</i>	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
<i>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati.....	33
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
<i>Davlatova Zebo Haydarovna</i>	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
<i>Ochilova Farida Baxriddinovna</i>	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari.....	44
<i>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</i>	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
<i>Sevara Mamatkarimova</i>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
<i>Курбанова Шаира Исмаиловна</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	63
<i>Muminova Feruza Farxodovna</i>	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati.....	70
<i>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
<i>Saidova Dilnoza Maripovna</i>	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
<i>Дмитрий Валерьевич Пупонин</i>	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
<i>Мукинова Динора Азаматовна</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
<i>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</i>	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar	92
<i>Berkinova Charos Islomovna</i>	
Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
<i>N. R. Masharipova</i>	



Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimini baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
Pardayeva Aziza Rahmatilloevna	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari	119
Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi	124
Ubaydullayeva Komila Bozor qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi	127
Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	130
Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari	134
Sherzod Shuxratovich Boboyorov	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
Sangirov Nuriddin Iriskulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli	142
Rasulova Umida Bahodir qizi	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
Boymatova Munavvar Ravshan qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
Lukmonova Salomat Gafurovna	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari	157
Farmonova Madina Bahriddin qizi	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi	161
Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
Choriyeva Xurmo Panji qizi	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislari malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish	181
Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
Axmad Bolqiyev	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
Shavqiddin Burxonov	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
Pardaboyev Doston	

Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
<i>Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</i>	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине “Практикум литературы народов СНГ”.....	199
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
<i>Shermatova Mokhira Baxodir qizi</i>	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
<i>Musharafxon Sultanova</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
<i>Ziyotova Madina</i>	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi	216
<i>Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</i>	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish	220
<i>Yusupova Latofat Nuriddinovna</i>	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	228
<i>Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</i>	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati	233
<i>Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</i>	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish	239
<i>Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</i>	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031)	245
<i>Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</i>	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	251
<i>Eryigitov Dilshod Xolboyevich</i>	
Enhancing Speaking Skills Productively in English	255
<i>J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	259
<i>Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil	263
<i>Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</i>	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	267
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
<i>Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</i>	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	279
<i>Rajabova Go'zal Zarifovna</i>	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
<i>Sitora Elova Axmatkulovna</i>	
Pediatrya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
<i>Umarkulov Muhtorali Islomkulovich</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
<i>Xakimov Xurshid Nozimovich</i>	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
<i>Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.</i>	



Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna</i>	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal</i>	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
<i>Tangirov A. J.</i>	
Ta'lim klasteri asosida zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirishning pedagogik mexanizmlari.....	309
<i>Dilnoza Xushvaktovna Ernazarova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....	313
<i>Payzullaeva Gozal Bayrambayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari.....	317
<i>Maxramova Gulchexra Maxsudbek qizi</i>	
Maxsus ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik samaradorligi.....	320
<i>Tashkenbayeva Dilafruz Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar.....	325
<i>Xazratkulova Shoira Noraliyevna</i>	
Musiq madaniyati darslarida multimedia vositalarida musiq o'qituvchisining kompetensiyaviy tayyorgarligi.....	329
<i>Qudratova Elnoz Ismatillayevna, Ismailova Sevinch, G'oibnazarov Elmurod</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli.....	334
<i>Tillaboyeva Havasxon</i>	
Diskursiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	340
<i>Boynazarova Nilufar Tilovmurot qizi</i>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari.....	346
<i>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari.....	349
<i>Ergasheva Sitara Baxriddin qizi</i>	
Sinergetik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish zarurati va imkoniyatlari.....	353
<i>Xo'shboqova Surayyo Baxtiyor qizi</i>	
Interfaol metodlar asosida o'smirlarda mustaqil tafakkurni rivojlantirish.....	357
<i>Ismoilova Mashxura Mashrabbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	360
<i>Kuvanakova Guljaxon</i>	
The Role of Autonomous Learning in Developing English Language Proficiency of University Students in Uzbekistan.....	363
<i>Omonova Kamola, Mutabar Zikriddinova</i>	
Maktablarda fasilitator faoliyatini tashkil etish borasida ayrim mulohazalar.....	366
<i>Qahhorova Marjona Ixtiyor qizi</i>	
Модель и педагогические условия формирования профессиональных компетенций будущих учителей в области информационной безопасности.....	370
<i>Сагинбаева Кымбат Кенжегалиевна, Нуриддинова Майсара Икрамовна</i>	
Boshlang'ich sinf darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish.....	374
<i>Xudoynazarova Muxlisa Bakhadirovna</i>	
Совершенствование методической компетентности будущих учителей начальных классов на основе креативного подхода.....	377
<i>Дониёрова Лайло Худайбердиевна</i>	
Talabalar guruhida jipslikning shakllanishida liderlikning ta'siri.....	385
<i>Asrarxanova E. A., Bo'riboyeva Mahliyo Anorboy qizi</i>	

Musiqa to'garaklarida o'quvchilarga cholg'u asboblari ijro etishni o'rgatish uslublari.....	388
<i>Q. Boboqulov, Jazilov Shuhrat Rustamovich</i>	
Состояние проблемы в практике школ Узбекистана на современном этапе.....	391
<i>Муминова М. Р.</i>	
Paradigmal yondashuv asosida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining tarbiyaviy kompetensiyalarini rivojlantirishning o'rganilganlik darajasi va nazariy asoslari	394
<i>Hayitova Oydiyov Po'latbekovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxsiy pedagogik kompetensiyani aniqlash metodologiyasi	401
<i>D. O'. Yo'ldosheva, J. A. Jovliyev</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida aktdan foydalanishning ilmiy asoslari	405
<i>Jo'liboyeva Sevinch Abloqul qizi</i>	
Zamonaviy media matnlarida salbiy his-tuyg'ularni ifodalovchi lisoniy birliklarning qo'llanilishi va ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari	408
<i>Jo'rayeva Nafosatxon Muxsinjon qizi</i>	
Bulutli Web-Gat texnologiyalari muhitida talabalarining fazoviy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot natijalari.....	412
<i>Sangirova Mahfuza Hasanovna</i>	
Hosilaning turli ma'nolari	417
<i>Boqiyev X. X., Hoshimov Muzaffar, Jabborov Muhammadali, Kutliyev Og'abek</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funksiyalarning lokal xossalari: barqarorlik va uzluksizlik asoslari.....	421
<i>Boqiyev X. X., Boyg'uziyeva Shukrona, Amirqulova O'g'iloy, Do'stqulova Charos Bahrom qizi</i>	
Aniq integralning xossalari va uni hisoblash.....	425
<i>Boqiyev X. X., Sayfullayeva Shabbona, Farhodova Nigina, Alimardonova Nigora</i>	
Ko'p qatlamli neyron tarmoqlarda gradient hisoblash mexanizmi: zanjir qoidasining nazariy va amaliy tahlili.....	430
<i>Boqiyev X. X., Nuraliyeva Sabrina Shobek qizi, Abdumannonova Jasmina Umarbek qizi, Javliyeva Dilnura Toshpo'lat qizi</i>	
Ko'p o'zgaruvchi uzluksiz funksiyaning lokal xossalari.....	435
<i>Boqiyev X. X., Ziyatova Gulxayo Mardon qizi, Samatova Sevinch, Muyitdinova Marvarita</i>	
Kelajak texnologik ta'lim o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?	438
<i>Matyakubov Kamaladin Kuronboyevich</i>	
Umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish – dolzarb pedagogik muammo sifatida	441
<i>Yakubova Muxtaram Abdumavlyanovna</i>	
O'zbekistonda muzey ta'limining paydo bo'lishi va rivojlanish tendensiyalari	446
<i>Ismailova Dilfuza Usmonqulovna</i>	
Didaktiv o'yinlarning pedagogik mohiyati va nutq–motorik rivojlanishdagi o'rni	450
<i>Mamasharipova Nargizaxon Elmurod qizi</i>	
Формирование интерпретационных навыков учащихся при изучении прозы в. с. маканина в профильной школе	454
<i>Нуржанова Жазира Бахытжановна</i>	
Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z boyligini rivojlantirish va shakllantirish shart-sharoitlari	457
<i>Shoaxmedova Surayyo Komilovna</i>	
Bo'lajak logopedlarni og'ir nutq nuqson bilan ishlash jarayonida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liqligi.....	462
<i>Achilova Sevara Djasirkulovna</i>	
Kompyuter tarmoqlari bo'yicha kompetentlik yondashuvi va uning pedagogik mohiyati.....	467
<i>Nabijonov Dilmurodjon Nodirjon o'g'li</i>	
Дидактические игры как средство повышения интереса учащихся к химии	472
<i>Усмонова Дильноза Тулкуновна</i>	
Robototexnika va sun'iy intellekt ta'limining innovatsion rivojlanishdagi o'rni	475
<i>Shukurov Shuhrat Nasimovich</i>	
O'zbek milliy musiqa ijrochiligining tarixiy taraqqiyoti va ta'limiy jarayonlari.....	481
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	



Taylor formulasi va uning tatbiqlari	486
<i>Boqiyev X. X., Maxmarayimov Javohir, Qurbonov Shaximbek, Raxmonov Og'abek</i>	
Talabalarning axborot-konstruktiv kompetensiyasining loyihalash imkoniyatlari	491
<i>Olamova Mamura Umarovna</i>	
O'quvchilarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi.....	494
<i>Fayziyeva Gulxayo Erkin qizi</i>	
Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari	498
<i>Allamuratova Xurliman Nurilla qizi</i>	
Sibling maqomining shaxs individual-psixologik xususiyatlari rivojlanishiga ta'siri.....	501
<i>Amirjanova Komola, Narkulova Dilrabo</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishning mohiyati.....	505
<i>Bo'riyeva Muxlisa, Urinova Rushana</i>	
Darsdan tashqari tadbirlarda o'quvchilarning nutq madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullari.....	508
<i>Daminova Dilbar Melimurodovna</i>	
Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral.....	513
<i>Boqiyev X. X., Isroilova Zahro, Erkinova Shahrizoda, Akbarov Ulug'bek</i>	
O'quvchilarning adabiy-nutqiy kompetensiyalarini axborotli matnlar asosida diagnostika va korreksiya qilish metodikasi.....	517
<i>O'smanova Diloromxon Ziyodinovna</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining voleybol mashg'ulot jarayonida asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanishi	520
<i>Ro'zmatova Nadejda Akbarali qizi</i>	
Yosh voleybolchilarda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari.....	524
<i>Sabirova Mohinur Islamovna</i>	
Xalq hunarmandchiligidan mashg'ulotlarni o'tkazish tartibi to'g'risida ayrim fikrlar	530
<i>Umarov Raxim Tojiyevich</i>	
TPACK modeli asosida bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining kasbiy-ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish	533
<i>Ziyoyeva Maxfuza Soataliyevna</i>	
Совершенствование техники вращений у юных фигуристок в условиях учебно-тренировочной группы 1–2 года обучения.....	538
<i>Федорова С. В.</i>	
Refleksiv yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasi.....	543
<i>Donabayeva Zebuniso Ma'rufjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish	547
<i>Xasanova Shaxnoza Zarifevna</i>	
Geymifikatsiya texnologiyasi asosida bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda oliy ta'limning metodik shart-sharoitlari va pedagogik imkoniyatlari	552
<i>Xaydarova Namunaxon Adhamjonovna</i>	



UMUMTA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH – DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Yakubova Muxtaram Abdumavlyanovna
 Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
 mustaqil izlanuvchi



Annotatsiya: Umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Ta'lim sifatini boshqarish tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, o'ziga xos xususiyatlari hamda boshqa fan sohalari bilan o'zaro aloqasi tahlil qilinadi. Umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishning zamonaviy holati, o'quvchilarning akademik natijalari, fan olimpiadalaridagi yutuqlarni baholash tizimi va sifat boshqaruvining amaliy mexanizmlari yoritiladi. Olib borilgan tadqiqotlar asosida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, sifat boshqaruvi, umumta'lim muassasasi, monitoring, pedagogik muammo, attestatsiya, olimpiada, kompetensiya, reyting tizimi, pedagog malakasi.

Abstract: The management of educational quality in general education institutions is considered as a pressing pedagogical issue. The concept, structural components, specific features, and interdisciplinary connections of educational quality management are analyzed in contemporary contexts. The academic performance of students, the system for evaluating achievements in subject olympiads, and practical mechanisms of quality management are examined. Based on the conducted research, scientifically grounded recommendations for improving educational quality are developed.

Key words: educational quality, quality management, general education institution, monitoring, pedagogical problem, certification, olympiad, competence, rating system, teacher qualification.

Аннотация: Управление качеством образования в общеобразовательных учреждениях рассматривается как актуальная педагогическая проблема. Раскрываются понятие, структурные компоненты и специфические особенности управления качеством образования, а также его взаимосвязь с другими научными областями. Анализируются академические результаты учащихся, система оценки достижений на предметных олимпиадах и практические механизмы управления качеством. На основе проведённых исследований разрабатываются научно обоснованные рекомендации по повышению качества образования.

Ключевые слова: качество образования, управление качеством, общеобразовательное учреждение, мониторинг, педагогическая проблема, аттестация, олимпиада, компетентность, рейтинговая система, квалификация педагога.

KIRISH

Ta'lim – jamiyatning intellektual va ma'naviy asosi. Har qanday davlatning kelajagi, iqtisodiy salohiyati va madaniy rivojlanishi bevosita ta'lim tizimining sifatiga bog'liq. Shu bois, ta'lim sifatini boshqarish masalasi bugungi kunda nafaqat pedagogika fani, balki davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy siyosat nuqtai nazaridan ham eng muhim muammolardan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar ta'lim sifatini boshqarish tizimini yangi bosqichga ko'tardi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil), Davlat ta'lim standartlari va pedagog attestatsiyasiga oid me'yoriy hujjatlar bu sohadagi huquqiy asosni mustahkamladi. Biroq, huquqiy asosning mavjudligi o'z-o'zidan ta'lim sifatini kafolatlamaydi – bu maqsadga erishish uchun boshqaruv tizimining barcha bo'g'inlari muvofiqlashtirilgan holda ishlashi zarur.

Umumta'lim muassasasida ta'lim sifatini boshqarish – bu o'quv-tarbiya jarayonini belgilangan standartlar va maqsadlar asosida rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tahlil qilishga qaratilgan yaxlit tizimdir. Ushbu tizimning samarali ishlashi bir qator omillarga – rahbarlik kompetensiyasiga, pedagog kadrlar malakasiga, moddiy-texnik ta'minotga, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikka – bog'liq bo'lib, ularning birortasidagi zaiflik butun tizim samaradorligini pasaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lim sifatini boshqarishning eng zaif bo'g'inlaridan biri – monitoring tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Ko'plab maktablarda monitoring rasmiy hisobot jarayoniga aylanib, uning natijalari amaliy qarorlar qabul qilishda qo'llanilmayapti. Buning oqibatida ta'lim jarayonidagi muammolar o'z vaqtida aniqlanmaydi va bartaraf etilmaydi.

Muammoning dolzarbligi shundan iboratki, ta'lim sifatini boshqarishning nazariy asoslari bilan uning amaliy tatbiqi o'rtasida katta tafovut mavjud. Ko'pgina umumta'lim muassasalarida boshqaruv tizimi reaktiv xarakter kasb etib, muammolar yuzaga kelgandan keyin hal qilinadi. Proaktiv, ya'ni oldini oluvchi boshqaruv yondashuvi hali to'liq shakllangan emas.

Tadqiqotning maqsadi: umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish, mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Ta'lim sifati va uni boshqarishga oid nazariy-metodologik yondashuvlarni o'rganish va tahlil qilish;
2. Umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishning amaldagi holati va muammolarini aniqlash;
3. O'quvchilarning akademik natijalari, xususan, fan olimpiadalaridagi yutuqlarini baholash tizimini tahlil qilish;
4. Ta'lim sifatini boshqarishning samarali modeli va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim sifatini boshqarish masalasi pedagogika fanida muhim nazariy va amaliy yo'nalish sifatida shakllangan.

Jurayev R.X. va Xoliqov A.A. ta'lim menejmenti konsepsiyasini yoritib, ta'lim jarayonini samarali boshqarish tizimli yondashuv asosida amalga oshirilishini asoslab beradi. Ularning fikricha, ta'lim sifatini ta'minlash boshqaruvning barcha bosqichlarida rejalashtirish, tashkil etish, nazorat va tahlil jarayonlarining uzviy bog'liqligiga tayanadi.

Hasanboeva O.U. esa pedagogika fanining umumiy qonuniyatlari doirasida ta'lim sifatining mazmuni, mezonlari va unga ta'sir etuvchi omillarni keng yoritib, sifat tushunchasining ko'p qirrali ekanligini ta'kidlaydi.

Yo'ldoshev J.G'. pedagogik mahoratni ta'lim sifatining asosiy omillaridan biri sifatida ko'rib, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va metodik tayyorgarligi o'quv natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Musurmonova O.M. ta'lim sifatini monitoring qilish masalalarini tadqiq etib, monitoring tizimi orqali olingan ma'lumotlarning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Muallif ta'lim sifatini oshirishda doimiy tahlil, baholash va teskari aloqa mexanizmlarining muhimligini alohida qayd etadi.

So'nggi tadqiqotlarda ta'lim sifatini oshirishning amaliy jihatlari ham keng yoritilmoqda.

Toshmatov N.A. umumta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilib, boshqaruv jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.

Qodirov A.A. va Yunusova D.I. esa o'quvchilarning fan olimpiadalaridagi yutuqlarini ularning intellektual salohiyati bilan bog'lab, bu ko'rsatkichlarning ta'lim sifati indikatorlaridan biri sifatida ahamiyatini asoslab beradi.

Ushbu ilmiy qarashlar ta'lim sifatini boshqarish muammosini kompleks o'rganish va uni takomillashtirish yo'llarini belgilashda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy izlanishning bir necha usullaridan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, qiyoslash va sintez, kuzatuv, suhbat, so'rovnoma, ekspert baholash hamda statistik tahlil usullari. Ushbu usullar majmuining qo'llanilishi tadqiqot obyektini har tomonlama, chuqur va ishonchli o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida ta'lim sifatini boshqarishning tizimli yondashuvi, faoliyat nazariyasi, kompetensiyaviy yondashuv va natijaga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi qabul qilindi.

Tadqiqotning empirik asosini 2023–2026-yillar davomida olib borilgan kuzatuvlar, 186 nafar pedagog xodim va 42 nafar maktab rahbari bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari tashkil etdi. Bundan tashqari, 520 nafar o'quvchining akademik ko'rsatkichlari hamda fan olimpiadalaridagi ishtirok va yutuq ma'lumotlari tahlil qilindi.

Tadqiqot bosqichlari:

Birinchi bosqich (2023–2024-yillar): nazariy manbalar tahlili, tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish, dastlabki ma'lumotlar to'plash;



Ikkinchi bosqich (2024–2025-yillar): empirik ma'lumotlar to'plash, so'rovnomalar o'tkazish, monitoring natijalari tahlili;

Uchinchi bosqich (2025–2026-yillar): ma'lumotlarni qayta ishlash, xulosalar shakllantirish, tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot o'tkazilgan muassasalar O'zbekiston Respublikasining turli hududlarida joylashgan bo'lib, shahar va qishloq maktablari, turli hajmdagi va moddiy-texnik ta'minot darajasidagi muassasalar qamrab olingan. Bu esa natijalarning umumiylikini ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim sifatini boshqarishning nazariy asoslari

Ta'lim sifati – ko'p qirrali, murakkab tushuncha bo'lib, unga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Birinchi yondashuv ta'lim sifatini o'quvchilar erishgan bilim va ko'nikmalar darajasi bilan, ikkinchi yondashuv – ta'lim jarayonining belgilangan standartlarga muvofiqligi bilan, uchinchi yondashuv esa – ta'lim natijalari va jamiyat talablari o'rtasidagi muvofiqlik bilan belgilaydi.

Zamonaviy pedagogika fanida ta'lim sifatini boshqarish uchta asosiy komponent orqali ko'rib chiqiladi:

- Kirish sifati (input quality)** – ta'lim resurslari, pedagog kadrlar malakasi, moddiy-texnik ta'minot;
- Jarayon sifati (process quality)** – o'qitish metodologiyasi, ta'lim muhiti, boshqaruv tizimi;
- Natija sifati (output quality)** – o'quvchilar bilimi, kompetensiyalari, keyingi hayotga tayyorgarligi.

Ushbu uch komponent o'zaro bog'liq bo'lib, biri yetishmasa, boshqasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, moddiy ta'minot yuqori bo'lsa-da, pedagog kadrlar malakasi past bo'lsa, ta'lim sifati kutilgan darajada bo'lmaydi. Aksincha, yuqori malakali pedagog cheklangan sharoitda ham sifatli ta'lim bera oladi. Biroq, bu ikkinchi holat bar'yer hisoblanmasligi kerak – barcha komponentlar birgalikda rivojlanishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim sifatini boshqarish deganda nafaqat o'quv natijalari, balki butun ta'lim muhitini – sinf xonasi iqlimi, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari, ota-onalar bilan hamkorlik, maktab madaniyati – ni ham qamrab oluvchi yaxlit tizim tushunilishi lozim.

Monitoring va baholash tizimi: zamonaviy holat tahlili

Tadqiqot davomida aniqlangan eng muhim muammolardan biri – monitoring tizimining rasmiylashib ketganligidir. So'rovnoma natijalariga ko'ra, pedagoglarning 67 foizi monitoring natijalari asosida amaliy o'zgarishlar amalga oshirilmayapti, deb hisobladi. Monitoring aksariyat hollarda statistik ko'rsatkichlar to'plash uchun o'tkaziladi va uning natijalari hisobot shaklida qoladi.

Maktab rahbarlarining 58 foizi monitoring natijalari bilan qanday ishlash kerakligiga doir maxsus tayyorgarlikka ega emasligini ta'kidladi. Bu esa monitoring samaradorligining past bo'lishiga asosiy sabab hisoblanadi. Monitoring natijalarini tahlil qilib, ulardan strategik qarorlar qabul qilishda foydalanish – zamonaviy maktab boshqaruvining muhim kompetensiyasi bo'lishi kerak.

Ayni paytda baholash tizimida ham muammolar mavjud. O'quvchilarning bilimini baholashda asosan summativ (yakunlovchi) baholash ustuvorlik qilmoqda. Formativ (jarayonli) baholash – ya'ni o'qish jarayonida doimiy teskari aloqa ta'minlash – ko'plab maktablarda yetarli darajada qo'llanilmayapti. Holbuki, formativ baholash o'quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish va o'quv strategiyasini moslashtirishning asosiy vositasidir.

Akademik natijalar: fan olimpiadalaridagi yutuqlarni baholash tizimi

O'quvchilarning fan olimpiadalaridagi yutuqlari ta'lim sifatining muhim indikatorlaridan biri sifatida qaralib, pedagog attestatsiya tizimida alohida o'rin egallaydi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha jami 10 ball belgilanib, ballar olimpiadaning bosqichiga qarab taqsimlanadi.

1-jadval: **Fan olimpiadalarida o'quvchilar yutuqlari bo'yicha ball taqsimlash tizimi**

Ko'rsatkich	Ball
1.1. Umumta'lim muassasasi o'quvchilarining fan olimpiadalarida qo'lga kiritgan yutuqlarini baholash	10
1.1.1. O'quvchilari Asosiy olimpiadaning ikkinchi (tuman-shahar) bosqichida sovrinli o'rinnlarni egallaganligi	3
1 ta sovrinli o'rin bo'lsa	2
2 ta va undan ortiq sovrinli o'rin bo'lsa	3

1.1.2. O'quvchilari Asosiy olimpiadaning uchinchi (hududiy) bosqichida sovrinli o'rinlarni egallaganligi	3
Eng yaxshi ko'rsatkichi 3-o'rin bo'lsa	1
Eng yaxshi ko'rsatkichi 2-o'rin bo'lsa	2
Eng yaxshi ko'rsatkichi 1-o'rin bo'lsa	3
1.1.3. O'quvchilari Asosiy olimpiadaning to'rtinchi (respublika) bosqichi g'olib va sovrindori bo'lganligi	2
Respublikada sovrinli o'rin bo'lsa	2
1.1.4. O'quvchilari Xalqaro olimpiadalarda va ularga saralash bosqichlarida erishgan yutuqlari	2
Xalqaro olimpiadalarga saralash bosqichida ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritisa	1
Xalqaro olimpiadalarga saralash bosqichlaridan o'tib, terma jamoa tarkibiga kirsisa	1,5
Vazirlar Mahkamasining 09.09.2021-yildagi 562-son qarorida belgilangan xalqaro olimpiadalarda sovrindor (oltin, kumush, bronza) bo'lsa	2

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ball taqsimlash ierarxik tarzda qurilgan: yuqori bosqichda erishilgan natija yuqoriroq ball bilan rag'batlantiriladi. Bu yondashuv pedagoglarni o'quvchilarni nafaqat tuman-shahar, balki hududiy, respublika va xalqaro bosqichlarda ham g'alaba qozonishga tayyorlashga undaydi.

Xalqaro olimpiadalar yo'nalishida ayniqsa nozik gradatsiya ko'zga tashlanadi. Saralash bosqichiga kirish yo'llanmasi, terma jamoa tarkibiga kirish va sovrindor bo'lish – uchta alohida daraja sifatida belgilangan. Bu esa o'quvchi va uning o'qituvchisining xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyatini to'liq aks ettirish imkonini beradi.

Biroq, tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, maktablarning 41 foizi o'quvchilarni olimpiadaga tayyorlash uchun yetarli metodik ta'minotga ega emas. Bundan tashqari, olimpiada natijalari ta'lim sifatining faqat bir qirrasini – elita o'quvchilar qatlamidagi yutuqlarni – ko'rsatadi. Barcha o'quvchilarning o'rtacha bilim darajasi va kompetensiyalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi ham shakllantirilishi zarur.

Attestatsiya tizimi va pedagog motivatsiyasi

Pedagog attestatsiyasi ta'lim sifatini boshqarishning muhim mexanizmi sifatida qaraladi. Ammo so'rov-noma natijalariga ko'ra, pedagoglarning 62 foizi attestatsiya jarayonini kasbiy rivojlanishga hissa qo'shadi, deb hisoblamaydi. Ular attestatsiyani asosan hujjat tayyorlash yuklamasi sifatida qabul qilmoqda.

Bu holat attestatsiya tizimini qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi. Samarali attestatsiya tizimi o'qituvchining kasbiy o'sishini stimullashtirib, uni yangi usullarni o'zlashtirishga, tajriba almashishga va o'z faoliyatini tahlil qilishga undashi kerak. Ball-reyting tizimining kiritilishi muayyan darajada rag'batlantiruvchi funktsiya bajarsa-da, u kasbiy rivojlanishning to'liq qoniqarli mexanizmi bo'la olmaydi.

Pedagogik motivatsiya masalasi alohida e'tiborni talab etadi. Moddiy rag'batlantirish, kasbiy e'tirof va muassasa ichidagi psixologik muhit – uchala omil birgalikda pedagog motivatsiyasini shakllantiradi. Tadqiqotimizda pedagoglarning 71 foizi kasbiy e'tirof va qo'llab-quvvatlash – moddiy rag'batlantirish darajasi bilan teng yoki undan muhimroq – omil ekanligini ta'kidladi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarishning asosiy muammolari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Monitoring tizimining zaifligi – ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qila olmaslikka olib keladi; bu esa pedagog motivatsiyasini pasaytiradi va natijada ta'lim sifati yomonlashadi.

Ushbu muammolarning ildizi ko'pincha boshqaruv madaniyatida yotadi. Maktab rahbarlari ko'pincha taktik va operativ boshqaruv bilan band bo'lib, strategik boshqaruv – muassasaning uzoq muddatli rivojlanish yo'nalishini belgilash, resurslarni maqbul taqsimlash, kadrlar siyosatini shakllantirish – ga vaqt va e'tibor yetishmaydi.

Xalqaro tajriba ko'rsatishicha, ta'lim sifatini boshqarishda eng yuqori natijaga erishgan davlatlar – Finlandiya, Janubiy Koreya, Singapur – uchta umumiy xususiyatga ega: yuqori malakali pedagog kadrlar, mustaqil va mas'uliyatli maktab boshqaruvi va kuchli ta'lim madaniyati. Ushbu tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirib qo'llash istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Fan olimpiadalaridagi yutuqlar bo'yicha baholash tizimining ijobiy tomoni shundaki, u pedagoglarning bir qismini yuqori natijalarga erishishga rag'batlantiradi. Biroq, bu tizimning yagona baholash mezonini sifatida qo'llanilishi bir tomonlama yondashuv hisoblanadi. Ta'lim sifatining ko'p o'lchovli tabiati keng qamrovli indikatorlar tizimini talab etadi – o'quvchilarning o'rtacha bilim darajasi, har xil qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlash samaradorligi, ijtimoiy-emotsional rivojlanish ko'rsatkichlari ham hisobga olinishi lozim.

Attestatsiya tizimini takomillashtirish yo'lida eng samarali yondashuv – uni kasbiy rivojlanishning bir qismi sifatida ko'rish. Bu "portfolioga asoslangan attestatsiya" modeli orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lib, unda pedagog o'z kasbiy o'sishini hujjatlashtiradi, tajriba almashish faoliyatini yozib boradi va o'z o'quvchilarining dinamikasini tahlil qiladi.



Tadqiqotimiz yana bir muhim xulosaga olib keldi: ta'lim sifatini boshqarishda maktab hamjamiyatining – o'qituvchilar, ota-onalar, mahalla, jamoatchilik – ishtiroki hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu manfaatdor tomonlar birgalikda maktabning ta'lim muhitini shakllantiradi va ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi asosiy xulosalar shakllandi:

Birinchidan, umumta'lim muassasalarida ta'lim sifatini boshqarish ko'p komponentli, tizimli jarayon bo'lib, uning samaradorligi barcha bo'g'inlarning muvofiqlashtirilgan ishlashiga bog'liq. Birorta bo'g'indagi zaiflik butun tizimga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, monitoring tizimining samarali ishlashi ta'lim sifatini boshqarishning asosidir. Monitoring natijalaridan ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda foydalanish maktab boshqaruvida asosiy kompetensiya bo'lishi lozim.

Uchinchidan, fan olimpiadalaridagi yutuqlarni baholash tizimi pedagoglarni rag'batlantirishning muhim mexanizmi bo'lsa-da, u ta'lim sifatini to'liq aks ettira olmaydi. Keng qamrovli, ko'p o'lchovli baholash tizimiga o'tish zarur.

To'rtinchidan, pedagog attestatsiyasini kasbiy rivojlanish bilan uyg'unlashtirish, uni byurokratik yuklamadan haqiqiy o'sish vositasiga aylantirish – islohot talab qiladigan eng muhim yo'nalishdir.

Beshinchidan, ta'lim sifatini oshirishda maktab hamjamiyatining faol ishtirokini ta'minlash, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikni mustahkamlash strategik ahamiyat kasb etadi.

Tavsiyalar:

Maktab rahbarlarini ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv usullariga o'qitish dasturlarini kuchaytirish, formativ baholash va teskari aloqa mexanizmlarini o'quv jarayoniga keng joriy etish, olimpiada tizimidan tashqari barcha o'quvchilar uchun kompetensiyaviy baholash tizimini shakllantirish, pedagog attestatsiyasini portfolioga asoslangan modelga o'tkazish, maktab–oila–jamiyat hamkorligi modellarini ishlab chiqish va joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.09.2021-yildagi 562-son qarori "Ta'lim muassasalari pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida". – Toshkent, 2021.
3. Jurayev R.X., Xoliqov A.A. Ta'lim menejmenti. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 248 b.
4. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020. – 312 b.
5. Musurmonova O.M. Ta'lim sifatini monitoring qilish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2022. – 176 b.
6. Hasanboeva O.U. Pedagogika. – Toshkent: Sharq, 2018. – 420 b.
7. Toshmatov N.A. Umumta'lim maktablarida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari // Xalq ta'limi. – 2023. – №4. – B. 18–25.
8. Qodirov A.A., Yunusova D.I. Maktab olimpiadalar va o'quvchi intellektual salohiyati // Pedagogik mahorat. – 2022. – №2. – B. 34–41.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.